

**YANGI KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQ VA ERKINLARINI
HIMOYA QILISHDA SUD TIZIMING O'RNINI**

Shoimov Muhammadali Xolbo'ta o'g'li

Qarshi xalqaro universiteti

Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi 2-bosqich talabasi.

Murojaat uchun Tel: +998976722070 @muhammadalishoimov070

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19118244>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi Konstitutsiya sharoitida inson huquqlari va erkinliklarini sud tizimi orqali himoya qilishning dolzarbligi, ahamiyati va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada sudlarning huquqiy kafolatlar doirasida inson huquqlarini ta'minlashdagi roli, adolatli sudlov prinsiplari, mustaqil sud faoliyati, shikoyat va nazorat mexanizmlari o'rganiladi. Shuningdek, maqolada sud-huquq islohotlarining inson huquqlari himoyasiga ta'siri, sud nazorati orqali huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlash va mazkur jarayonni samarali amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar keltiriladi. Maqola sud tizimining konstitutsiyaviy huquqiy bazasi, sud mustaqilligi va adolatli sudlov prinsiplari asosida inson huquqlarini himoya qilishdagi amaliyotni ko'rsatadi. Shu bilan birga, maqolada sud orqali himoya qilish mexanizmlari, jumladan, shikoyat qilish, nazorat qilish va sud-huquqiy islohotlar orqali huquqiy himoyani ta'minlash jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqil va professional sud tizimi mavjud bo'lganda, fuqarolarning asosiy huquqlari samarali himoya qilinadi, adolatli sudlov prinsiplari ta'minlanadi va huquqiy davlat tamoyillari mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, maqolada sudlar va boshqa huquqiy organlar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati, fuqarolarni sud himoyasi mexanizmlari haqida xabardor qilish va yangi Konstitutsiya sharoitida konstitutsiyaviy kafolatlarni mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar ham keltiriladi. Ushbu tahlil Yangi Konstitutsiya va inson huquqlari himoyasiga oid ilmiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Sud tizimi, inson huquqlari, erkinliklar, sud mustaqilligi, adolatli sudlov, konstitutsiyaviy kafolatlar, huquqiy himoya, sud nazorati, huquqiy davlat, sud-huquq islohotlari.

Abstract. This article analyzes the relevance, importance and practical aspects of protecting human rights and freedoms through the judicial system under the new Constitution. The article examines the role of courts in ensuring human rights within the framework of legal guarantees, principles of fair trial, independent judicial activity, complaint and control mechanisms. The article also provides recommendations on the impact of judicial reforms on the protection of human rights, strengthening the principles of the rule of law through judicial control, and effective implementation of this process. The article shows the practice of protecting human rights based on the constitutional legal framework of the judicial system, the principles of judicial independence and fair trial. At the same time, the article analyzes the mechanisms of judicial protection, including the processes of providing legal protection through complaints, supervision and judicial reforms. The results of the research show that when there is an independent and professional judicial system, the basic rights of citizens are effectively protected, the principles of fair trial are ensured, and the principles of the rule of law are strengthened. At the same time, the article provides recommendations on the importance of cooperation between courts and other legal bodies, informing citizens about judicial protection mechanisms, and

strengthening constitutional guarantees under the new Constitution. This analysis will serve as an important resource for the development of scientific and practical recommendations regarding the New Constitution and the protection of human rights.

Key words: Judicial system, human rights, freedoms, judicial independence, fair trial, constitutional guarantees, legal protection, judicial control, rule of law, judicial reforms.

Аннотация. В данной статье анализируются актуальность, важность и практические аспекты защиты прав и свобод человека через судебную систему в соответствии с новой Конституцией. В статье рассматривается роль судов в обеспечении прав человека в рамках правовых гарантий, принципов справедливого судебного разбирательства, независимой судебной деятельности, механизмов обжалования и контроля. Также в статье даются рекомендации по влиянию судебной реформы на защиту прав человека, укрепление принципов верховенства закона посредством судебного контроля и эффективную реализацию этого процесса. В статье показана практика защиты прав человека на основе конституционно-правовой базы судебной системы, принципов независимости судей и справедливого судебного разбирательства. При этом в статье анализируются механизмы судебной защиты, в том числе процессы обеспечения правовой защиты посредством жалоб, надзора и судебной реформы. Результаты исследования показывают, что при наличии независимой и профессиональной судебной системы эффективно защищаются основные права граждан, обеспечиваются принципы справедливого судебного разбирательства, укрепляются принципы верховенства закона. При этом в статье даются рекомендации о важности сотрудничества судов и других юридических лиц, информирования граждан о механизмах судебной защиты, а также усиления конституционных гарантий, предусмотренных новой Конституцией. Этот анализ послужит важным ресурсом для разработки научных и практических рекомендаций относительно Новой Конституции и защиты прав человека.

Ключевые слова: Судебная система, права человека, свободы, независимость судебной власти, справедливое судебное разбирательство, конституционные гарантии, правовая защита, судебный контроль, верховенство закона, судебная реформа.

Kirish

Inson huquqlari va erkinliklari adolatli, teng huquqli va demokratik jamiyatning mustahkam asosidir. Ushbu huquqlarni ishonchli himoya qilish, ularni qo'llash va rivojlantirishda huquqshunoslik, ya'ni huquqni o'rganish va tatbiq etish muhim o'rin tutadi. Yangi Konstitutsiya qabul qilinishi bilan inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda mavjud huquqiy tizimning ishonchliligi, adolatliligi va samaradorligi yanada dolzarb masala sifatida yuzaga chiqadi. Inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlari nafaqat milliy qonunlar, balki siyosiy tartib, hukumat organlarining faoliyati va amalga oshirilayotgan sud nazorati bilan bog'liqdir. Har bir mamlakatda milliy darajadagi qonunlar va mexanizmlar inson huquqlarini ta'minlashning kaliti sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, sud tizimi inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi asosiy organ sifatida ajralmas rol o'ynaydi. Sudlar nafaqat shaxsning huquqlariga qilingan buzilishlarni aniqlab, qonuniy choralarni qo'llashga qodir, balki adolatli va qonuniy sudlov jarayonini tashkil etish orqali fuqarolarning huquqlarini himoya qiladi.

Shu bilan birga, sud tizimi hukumat vakolatlarini cheklaydi, ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyat organlarining harakatlarining qonuniyligini nazorat qiladi va konstitutsiyaviy tartibni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, yangi Konstitutsiya sharoitida inson huquqlari va erkinliklarini sud orqali himoya qilish masalasi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va siyosiy nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga ega bo'lib, sud-huquq tizimining samarali ishlashini ta'minlash dolzarb vazifa sifatida ko'riladi.

Asosiy qism

Inson huquqlari va erkinliklari adolatli va teng huquqli jamiyatning poydevoridir. Ularni ta'minlash va himoya qilishda sud tizimi markaziy o'rin tutadi, chunki sudlar qonun ustuvorligini nazorat qiladi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunga xilof harakatlarini aniqlaydi, shuningdek, fuqarolarning huquqlarini tiklaydi. Shu nuqtai nazardan, yangi Konstitutsiya inson huquqlari va erkinliklarini sud orqali himoya qilish mexanizmlari bilan boyitilgan va amaliy samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan [1]. BMT Nizomida inson huquqlari atamasi yetti marta qayd etilgan bo'lib, inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish Tashkilotning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi esa inson huquqlarini xalqaro huquq sohasiga kiritgan asosiy hujjat bo'lib, shu kundan beri BMT inson huquqlarini tinimsiz himoya qilib kelmoqda. Shu tamoyillar milliy sud tizimlari faoliyati uchun ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi [2]. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklarini sud orqali himoya qilishning aniq kafolatlari mavjud. Konstitutsiyaning 55-moddasida har bir shaxs o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha vositalar orqali himoya qilishga haqli ekani belgilangan. Har bir fuqaro davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning qonunga xilof qarorlari va harakatlariga sud orqali shikoyat qilishi, buzilgan huquqlari tiklanishi uchun mustaqil va xolis sudga murojaat qilish huquqiga ega [3]. Yangi Konstitutsiya sharoitida sud-huquq tizimini takomillashtirish va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlar doimiy ravishda amalga oshirilmoqda. 2017-yil 21-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan sud tizimini tubdan takomillashtirish, odil sudlovni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va inson huquq va erkinliklarini to'liq himoya qilish tizimi joriy etildi. Farmon doirasida Sudyalari oliy kengashi tashkil etilib, sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash, malakali sudyalari korpusini shakllantirish va sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash mexanizmlari yo'lga qo'yildi [4]. So'nggi yillarda amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi: Sud tizimining tuzilmasini takomillashtirish – Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, Oliy sud faoliyati samaradorligi oshirildi. Hududlardagi xo'jalik sudlari iqtisodiy sudlar sifatida qayta tashkil etildi va birinchi instansiya vakolatlari aniq belgilandi. Sudyalik lavozimiga tanlov tizimi – Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash jarayoni shaffof va raqamli formatda amalga oshirilmoqda. Nomzodlar malaka imtihonlari va onlayn monitoring orqali baholanadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlovni takomillashtirish–Jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki eshituv instituti joriy etildi, shaxsning aybdorligi faqat sud muhokamasida isbotlangan dalillarga asoslanishi qat'iy belgilandi. Qiynoqqa solish, ruhiy va jismoniy bosim kabi zo'ravonlik holatlari qat'iyani taqiqlandi. Sud faoliyatining shaffofligi va ochiqqligi – 10 mingdan ortiq jinoyat ishi sayyor sud muhokamalari orqali ko'rib chiqildi. Sudlar elektron reyting tizimi orqali baholanib, sudyalarning samaradorligi va daxlsizligi ta'minlanadi.

Fuqarolarning sud orqali shikoyat qilish huquqi – 2019–2020-yillar mobaynida ma'muriy sudlar tomonidan 31 321 ta ariza ko'rib chiqilib, 21 272 tasi (67,9%) qanoatlantirilgan. Shu tariqa, davlat organlari va mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlariga qarshi sud himoyasi tizimli ravishda ishlamoqda [5]. Ombudsman instituti va xalqaro standartlar – Ombudsman instituti va xalqaro standartlar milliy huquq tizimiga integratsiya qilinib, inson huquqlari himoyasini xalqaro mezonlarga moslash imkonini berdi. 2020-yilda O'zbekiston BMT Inson huquqlari kengashiga a'zo etildi, AQSH Davlat departamenti esa O'zbekistonni diniy erkinlik bo'yicha "Special Watch List"dan chiqarildi. Shuningdek, sud tizimi gender tengligini ta'minlashga ham e'tibor qaratmoqda. 2021-yil I choragida oliy sudda faoliyat yuritayotgan 63 sudyadan 15 nafari ayol bo'lib, bu 31,25% ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, sud-huquq sohasida fuqarolarning ishonchi oshirildi, odil sudlov darajasi mustahkamlandi, qonun ustuvorligi kuchaytirildi. Barcha shu chora-tadbirlar inson huquqlari va erkinliklarini sud orqali ishonchli himoya qilish, odil sudlovni ta'minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish va huquqiy davlat barpo etishning mustahkam poydevorini yaratmoqda [6].

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklarini sud orqali himoya qilish tizimi sezilarli darajada takomillashtirildi. Sudlar davlat hokimiyatining ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi organlaridan mustaqil faoliyat yuritib, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi. 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari, jumladan Sudyalar oliy kengashi tashkil etilishi, sud apparatining modernizatsiyasi va jinoyat ishlari bo'yicha yangi institutlar joriy etilishi, fuqarolarning sudga ishonchini oshirdi va adolatli sudlovni ta'minlashga xizmat qildi. Shuningdek, fuqarolarga davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunga xilof harakatlariga qarshi sudga shikoyat qilish, buzilgan huquqlari tiklanishi va xalqaro huquqiy organlarga murojaat qilish huquqi kafolatlandi. Sud-huquq tizimida gender tenglikni ta'minlash va ayol sudyalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida ham sezilarli natijalarga erishildi. Shu tariqa, inson huquqlarini sud orqali himoya qilish tizimi mamlakatda qonun ustuvorligi va odil sudlovni mustahkamlashda asosiy mexanizm sifatida shakllandi.

Takliflar

1. Sud tizimi mustaqilligi va xolisligini yanada mustahkamlash maqsadida sudyalarning malaka oshirish va professional rivojlanish tizimini doimiy takomillashtirish zarur.
2. Ombudsman institutining faoliyati va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini yanada kuchaytirish orqali inson huquqlarini himoya qilish tizimi samaradorligini oshirish mumkin.
3. Sud tizimida elektron va onlayn monitoring tizimlarini kengaytirish, shu jumladan sud ishlari shaffofligini ta'minlash va aholining sud faoliyatiga bo'lgan ishonchini oshirish zarur.
4. Gender tengligi va ayol sudyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliyotlarni yanada rivojlantirish, shuningdek, sud apparatida yosh kadrlarni jalb qilish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish tavsiya etiladi.
5. Xalqaro standartlarni milliy qonunchilik va sud amaliyotiga tizimli joriy etish orqali inson huquqlari himoyasini yanada samarali amalga oshirish imkoniyatlari kengaytirilishi mumkin.

6. Fuqarolarning sud orqali huquqlarini himoya qilish huquqi bo'yicha keng jamoatchilikni xabardor qilish va huquqiy savodxonlikni oshirish, shu jumladan ta'lim va axborot kampaniyalarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Legal protection of human rights.–Council of Europe.–URL: <https://www.coe.int/en/web/compass/legal-protection-of-human-rights>
2. Protect Human Rights. – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT). – URL: <https://www.un.org/en/our-work/protect-human-rights>
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – 1948-yil 10-dekabr. – 8-modda [
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.02.2017 yildagi PF-4966-son «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida». – URL: <https://lex.uz/docs/-3121087>
5. Nodirxonova, Nilufar. «Sud-huquq tizimidagi strategik islohotlar inson manfaatlari uchun xizmat qilmoqda». – «Taraqqiyot strategiyasi» markazi. – URL: <https://strategy.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. – 55-moddasi.
7. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning "Harakatlar strategiyasi".